



## ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 04<sup>th</sup> January 2023

Online: 05<sup>th</sup> January 2023

## KEY WORDS

Soʻz, ibora, fonetik, semantik, leksema, turgʻun birikmalar, frazeologiya

## TILSHUNOSLIKDA SOʻZ VA IBORA TUSHUNCHALARINING NAZARIY JIHATLARI

Axmedova Saodat Gʻaybulloyevna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Yaponshunoslik fakulteti, Yaponiya tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti kafedrasida stajor-oʻqituvchisi

akhmedovasaodat17@gmail.com, Tel: +998901354589

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7505305>

## ABSTRACT

*Soʻz va ibora tushunchasi tilshunoslikda hali mukammal darajada oʻrganilmagan til birliklari hisoblanadi. Ushbu maqolada soʻzning fonetik, semantik, morfologik va leksik xususiyatlari nazariy talqin etiladi. Shu bilan birga soʻzdan farq qiluvchi ibora tushunchasining frazeologizm birligi xususiyatidan tashqari, bu sohaga taalluqli boʻlmagan maʼnolari va turlariga urgʻu berilib, tahlil qilinadi.*

Umumiy va xususiy tilshunoslikning eng asosiy tushunchalaridan biri boʻlmish soʻz (leksema, leksika) haligacha oʻzining aniq ilmiy talqinini topgani yoʻq. (Qoʻchqortoyev, 1969; Hojiyev, 1981; Neʼmatov, 1988; Neʼmatov va b., 1995; Shamsiddinov, 1999; Mengliyev, 2002, Abdiyev, 2005).

Soʻzning taʼrifi va tavsifiga bagʻishlangan ilmiy-nazariy manbalarni oʻrganish, uning qandaydir «normal», «dinamik» (harakatdagi) birliklar – soʻz birikmasi va gapdan farqlanuvchi statik (turgʻun, oʻzgarmas) birlik sifatida talqin qilish ustuvor ekanligini koʻrsatdi.

Soʻz tilning asosiy struktur-semantik birligi boʻlib, borliq hodisalari, narsa va predmetlarning xususiyatlarini nomlashga xizmat qiladi va u fonetik, leksik, semantik va grammatik belgilarning majmui sifatida amalda qoʻllanadi. Belgilar har xil tillarda turlicha namoyon boʻlar ekan, soʻzga hamma tillar uchun mushtarak boʻlgan taʼrif berishning iloji yoʻq. Uni mazkur tilning ichki qonuniyatlari asosidagina taʼriflash mumkin ekanligini taʼkidlash ushbu oʻrinda lozim topildi. Bu – bir tomondan ikkinchi tomondan soʻzga «gap tarkibidagi maʼnoli birlik», oʻz maʼnosiga ega boʻlgan tovush va tovushlar majmui kabi taʼriflar aslida notoʻgʻri emas va ayni paytda unga xos xususiyatlarni ifodalay olmaydi. Chunki, bunday taʼriflarni, nafaqat, soʻzga, balki, undan kichik (morfema) yoki katta (soʻz birikmasi va gap)ga nisbatan ham bemalol qoʻllash mumkin.

Soʻz — tilning narsa hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktur maʼnoviy birligi; oʻz tovush qobigʻiga ega boʻlgan, borlikdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular oʻrtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik maʼno va vazifalarda qoʻllanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutkda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan koʻrinishi. Soʻz gap uchun qurilish materiali boʻlib xizmat qiladi, lekin, undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr bildirmaydi. Oʻzida leksik va grammatik maʼnoni birlashtirgan holda soʻz muayyan soʻz turkumiga mansub boʻladi, oʻz



tarkibida muayyan til tizimida oldindan tayin bo'lgan barcha grammatik ma'nolarni ifodalaydi.

“So‘z fonetik jihatdan shakllangan bir butunlikdir: fonema va morfemalar so‘zning asosiy birliklari, so‘zlar mustaqil birlik bo‘lib, o‘z urg‘usiga ega. Urg‘u so‘zning fonetik jihatdan butunligini ta‘minlab, undagi tovushlarni birlashtiradi va shu bilan birga, nutq jarayonida bir so‘zni ikkinchi so‘zdan farqlash uchun xizmat qiladi. So‘zning butunligini ko‘rsatuvchi bir dalil pauzadir”, - deydi M. Irisqulov<sup>1</sup>.

So‘zga oid eng so‘nggi ta‘rifni akademik Azim Hojiyev bergan. Unga ko‘ra so‘z: “Leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘rinishi. O‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, ob‘ektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik ma‘no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi”.<sup>2</sup>

Til qurilishida so‘z alohida o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham u faqat leksikologiya va semasiologiyada emas, balki boshqa sohalarda ham ilmiy tadqiq etiladi.

So‘z shakli (tovush shakli) va mazmun birligiga ega bo‘lib, semantik va grammatik yaxlitlikni o‘zida mujassamlashtiruvchi birlikdir. U til qurilishida shakl va ma‘no jihati bilan to‘rt bosqichda ilmiy tahlil etiladi:

- a) fonologik jihatdan so‘zning fonemalar tarkibi va uning aktsent (urg‘u) qurilishi o‘rganiladi;
- b) morfologik jihatdan so‘zning morfemik tuzilishi ilmiy tahlil qilinadi;
- v) leksik jihatdan so‘zning atama birlik ekanligi, ya‘ni nom qo‘yish bilan bog‘liq tomoni qaraladi;
- g) semantik jihatdan so‘zning turli ma‘no tomoni tadqiq etiladi. Ko‘rinadiki, so‘z til qurilishining barcha sohalari bilan bog‘liq.

B.A.Golovinning ushbu gapi diqqatga sazovordir: “Kishilarnig ongida ham so‘zning, ham narsaning fizik va moddiy tuzilishi aks etadi. Demak, narsa bilan so‘zning qiyofasi bizning ongimizda birlashib bir butunlikni tashkil etadi”.<sup>3</sup>

So‘zning fizik qiyofasi bilan u anglatgan narsaning fizik qiyofasi o‘rtasidagi bog‘lanish birligi *ma‘no* deb ataladi. Demak, ma‘no borliqdagi predmetni aks ettiradi, so‘zning moddiy tomoni esa predmetning ishorasi bo‘lib xizmat qiladi.

Har qanday so‘z paydo bo‘lishidayoqo‘zma‘nosi va tovushlar qiyofasiga (tovush qobig‘iga) ega bo‘ladi. Demak, har qanday so‘z, avvalo, tovush va ma‘no birligiga egabo‘ladi. Bu narsa so‘zning fonetik va semantik tomonlaridir. So‘zning tovush tomoni uning ma‘nosini yuzaga chiqaruvchidir. Xuddi shu tovush tomoni bilan so‘zning ma‘nositinglovchiga yetadi, tushuniladi. Demak, u so‘zning ma‘nosi uchun, yuzaga chiqishi uchun xizmat qiladi.

So‘zlar fonetik, semantik strukturadan tashqari, morfemastrukturasiga ham egadir (*fish+chi+lar* kabi). So‘zning bu tomoni morfemika bahsida o‘rganiladi. Yangi so‘zlarning paydo bo‘lishida so‘z yasaliishi hodisasi muhim roli o‘ynaydi. Yangi so‘zlarning juda ko‘p miqdori har birtilning o‘ziga xos so‘z yasash usullari bilan yaratiladi: *terim(ter+im)* ~ affiksatsiya usuli, *kitobsevar(kitob+sevar)* -kompozitsiya usuli va boshqalar. So‘z bilan bog‘liq bu hodisa, ya‘ni

<sup>1</sup> Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

<sup>2</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.

<sup>3</sup> Головин Б.Н. Введение в языкознание. -М.: Высшая школа, 1977.



soʻz yasalishi va unga aloqador hodisalar tilshunoslikningsoʻz yasalishi boʻlimida oʻrganiladi. Soʻz nutqda turli-tuman grammatik maʼnolarni ifodalash uchun shu maʼnolarga xos formalarda qoʻllanadi. Boshqacha aytganda, soʻzlar forma yasalishi sistemalariga ham ega: *kito b+lar+im, talaba + lar+imiz -f ga, oʻq i+yap + ti + lar* kabi. Soʻzning forma yasalish sistemasi va u bilan bogʻliq hodisalar tilshunoslikning morfologiya bahsida oʻrganiladi. Soʻzlar soʻz birikmalari va gaplarning tuzilishida asos boʻlib xizmat qiladi. Bunday holatlar grammatikaning sintaksis boʻlimida oʻrganiladi.

Tilshunoslikda soʻz leksema, semema, semantema, sema kabi atamalar bilan ham ifodalanadi. Tilning mazmun planida soʻzning asosiy maʼnosi *semema* termini bilan ataladi, ifoda planida esa *leksema* deb yuritiladi. Masalan, *bormoq, yurmoq, chopmoq, kelmoq, qadam bosmoq* soʻzlari turli leksemalar boʻlib, “harakat qilmoq” ni koʻrsatuvchi bir sememaga birlashadi. Ammo bu soʻzlarning har biri alohida semasiga ega. Semalar bir soʻzning maʼnosini boshqa soʻzlardan farqlash uchun xizmat qiladi. Semalar predmet va hodisalarga tegishli boʻlgan ichki va tashqi belgilar yordamida aniqlanadi va ular nutq jarayonida oʻyinlashadi.

Soʻzning barqaror semantik strukturasi taʼminlovchi semalardan tashqari, L.A. Novikovning qayd etishicha, kontekstuallik ham borki, ular nutqning talabiga koʻra paydo boʻladi. Shu munosabat bilan L.A. Novikov quyidagilarni taʼkidlaydi: «Kontekstual semalar tufayli nutq (matn)da til birligi maʼnosining konnotativ nozikliklari yuzaga keladi. Konnotativ maʼnolar asosida esa yasama (okkazional) maʼno tarkib topadi<sup>4</sup>.

Oʻzbek tilshunosligi tarixida buyuk allomalarimiz ham soʻz va til haqida fikr yuritganlar. Jumladan oʻzbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi asoschisi buyuk alloma Alisher Navoiy oʻz asarlarida soʻzning quyidagi maʼnolarda qoʻllagan:

1. Soʻz – til birligi, leksema maʼnosida. Bu soʻzni sof lisoniy maʼnoda talqin etishdir. Navoiy olamning yaratilishiga sabab boʻlgan ilk soʻz, odamning hayvondan ajralishiga fazilat boʻlgan soʻzni koʻzda tutadi.
2. Soʻz-nutq maʼnosida. Navoiy soʻzning ahamiyati u nutqda qoʻllangandagina koʻrinadi, deb hisoblagan. Bunda Navoiy, hozirgi davr tilshunosligi nuqtai nazaridan baholanadigan boʻlsa, harakatda, qoʻllanishda boʻlgan soʻzni koʻzda tutadi.
3. Soʻz-til lugʻat fondi, lugʻat boyligi sifatida. Navoiy tilning soʻz boyligi majmui haqida ham fikr yuritgan. Soʻz bogʻi, soʻz chamani, soʻz gulshani, soʻz gulitoni, soʻz boʻstoni, soʻz xayli, soʻz bahri kabi birikmalarda u nutqdagi, harakatdagi, nutqiy faoliyatdagisoʻzni koʻzda tutadi.
4. Soʻz-gap maʼnosida. Alisher Navoiy soʻz leksemasini kengroq, yaʼni gap maʼnosida qoʻllaydi.
5. Soʻz: 1) fikr; 2) mulohaza maʼnosida: “... Anvari va Salmon sheʼrida har biri birining jonibin tutub bahslar qilib, soʻzlari bir-biridin oʻtmaganidin soʻngra bu faqir...” (Muhokamatul-lugʻatayn”, 33b.)
6. Soʻz-gaplashmoq, muloqot maʼnosida: Quyidagi satrlarda soʻz gaplashish, muloqotga kirishmoq maʼnolarida ifodalangan: soʻzga kiyurmoq- soʻzlashga kirishmoq: “Deb erdiki, ey Abu Ali, bor boʻlgayki toʻtdek seni soʻzga kiyurgaylar.” (HM, 248b.) Soʻzga tutmoq-muloqotga undamoq, soʻzlashishga undamoq: “Mehmonni soʻzga tutti (HM, 196 b) va boshqalar.

<sup>4</sup> Новиков Л.А. Сема//Лингвистический энциклопедический словарь. –М., 1990, с. 438.



7. So‘z-ahd, vafo, so ‘zida turish ma’nosida: Yana xizmatimdan necha yuz hakim, Borining so‘zi poku royi salim. (CI, 394 b.)

8. So‘z – badiiy til ma’nosida

9. So‘z umuman badiiy asar, badiiy ijod mahsuli sifatida. Bu hol ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Jomiyning asarlarini, dostonlarini tilga olgan o ‘rinlarda ravshan ifodalangan: Aning zulmoti Hindustoni oxir, ravon so‘z chashmai hayvoni oxir. (N. Ganjaviy haqida, Farhod va Shirin, 30 b). O‘zi daryo so‘zi durdek muhayyo, Yana ma’nidin ul dur ichra daryo. (Jomiy haqida, Farhod va Shirin, 32b)

Yuqoridagi fikr mulohazalardan ko‘rinadiki, borliqdagi har qanday narsa, hodisa kabi psixologiya, falsafa, mantiq hamda lingvistikaning semiotika, semantika, semasiologiya singari bo‘limlarining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanmish so‘z ham ko‘p qirralidir. Shuning uchun uning har bir qirrasiga mos alohida-alohida ta‘riflash oson ish emas. So‘zga berilgan ta‘riflar ko‘p holatlarda bir-birini inkor qilsa ham, aslida uni teranroq va chuqurroq idrok etish imkonini yaratadi.

“Ibora” so‘zi ham o‘zbek tilida bir qancha ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tili izohli lug‘atida ibora so‘zining quyidagi ma’nolari keltirilgan: ibora (arab tilidan olingan – so‘z, so‘z birikmasi ma’nolarin anglatadi)-

1) biror tushuncha yoki fikr ifodalovchi, odatda so‘zlarning turg‘un birikmasi (so‘z birikmasi yoki gapga teng jumla); ta‘bir. “Chernitsov “vaqtincha tantana”, “vaqtincha chekinish”. “hujumga o‘tish” iboralarni qiynalib aytdi” (I.Rahim, Chin Muhabbat).

2) biror ma‘no turiga, uslubga oid so‘z birligi.

Mazkur izohli lug‘atda iboralar turg‘un va frazeologik turga ajratiladi. Turg‘un ibora bu bevosita nutq jarayonida hosil bo‘lmaydigan, tilda bir butun holda mavjud bo‘lib, shundayligicha nutqqa kiritiladigan so‘z birikmasi yoki gapga teng jumla. Frazeologik ibora esa turg‘un iboralarning ko‘chma ma’noli, obrazli turidir<sup>5</sup>

Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida frazeologik iboralarni oddiy “ibora” atamasi bilan ifodalanadi. Frazeologiya yunon tilidan olingan bo‘lib, “phrasis” – ifoda, ibora va logiya” – o‘rganaman, ya‘ni iboralarni o‘rganaman degan ma‘noni anglatadi. Ibora ikki va undan ortiq so‘zlardan tarkib topgan bo‘lib, xuddi so‘z kabi lug‘aviy ma’noga ega. Ibora tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga o‘xshab ketsa ham nutq birligi hisoblangan bunday birikmalardan butunlay farq qiladi. U til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, tilshunoslikda iboralarni turg‘un so‘z birikmasi deb ham yuritiladi. So‘z birikmasining tarkibidagi so‘zlar o‘z leksik ma‘no mustaqilligini saqlagan bo‘ladi. Iboraning tarkibidagi so‘zlar esa o‘z leksik ma‘nosi bilan qatnashmaydi, ma‘nosi yo‘qolgan bo‘ladi. Iboralar ham so‘zlardek ifoda va ma‘no butunligiga ega. So‘zning ifodaviy tomonini tovushlar tashkil etsa, iboraning ifoda tomonini so‘zlar tashkil etadi.

M.Abidov o‘zining “Ingliz tilida turg‘un iboralarning o‘ziga xos xususiyatlari” ilmiy ishida “ibora” so‘zini “frazeologik birlik” terminining ekvivalenti sifatida qo‘llaydi. Uning ilmiy ishida keltirilgan ta‘rifga ko‘ra : “ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan, yaxlit frazeologik ma‘no anglatuvchi turg‘un til birligi frazeologizm yoki frazeologik birikma (ibora)

<sup>5</sup> Madaliyev. A. — O‘zbek tilining izohli lug‘atini Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, (2006) II jild.



deyladi”.<sup>6</sup> Iboralar soʻz kabi lugʻaviy birlik hisoblanadi. Ular ham soʻz kabi tilda tayyor holda mavjud boʻlganligi sababli nutq hodisasi emas, balki til hodisasi. Soʻz leksik maʼnoga ega boʻlgani kabi iboralar ham oʻzining frazeologik maʼnosiga ega. Soʻzdagi barcha paradigmatic, sintagmatik xususiyatlarni iboralarda ham yaqqol koʻrish mumkin. Shu bilan birga iboralar soʻz va erkin soʻz birikmasidan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, iboralar frazeologik sath elementi, birligi sifatida frazeologiya va frazeografiya obyektidir. Frazeologiyani tashkil etuvchi komponentlar maʼno butunligiga ega emas, ular faqatgina shakl va tovush tomoni bilan soʻzga oʻxshaydi. Ularni tashkil qiluvchi komponentlarning frazeologik maʼnosi turgʻun, koʻproq emotsional ekspressiv xususiyatga ega boʻlgan belgi, harakat kabilarni ifodalaydi. Shuning uchun ham frazeologik maʼno leksik maʼnodan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi. Aksariyat iboralarning identifikatori mavjud emas, yaʼni mazkur iboralar ifodalab kelayotgan maʼnosini bir soʻz bilan ifodalab boʻlmaydi. Bu maʼno erkin soʻz birikmasi bilan izohlanishi mumkin xolos.

Professor Stroyeva iboralarning asosiy qismini ikki guruhga boʻladi: erkin birikmalar va frazeologik chatishmalar. Turgʻun birikmalar ajratilgan guruh qismiga kiritilmagan, lekin ular erkin birikmalar tarkibiga kirgan. Erkin birikmaning majoziy maʼnosi butun birikma maʼnosi tomonidan yaratiladi, maʼno koʻchishi ekstra lingvistik omillarga tobe boʻladi. Erkin birikmaning majoziy maʼnosi butun birikma maʼnosi tomonidan yaratiladi, maʼno koʻchishi ekstra-lingvistik omillarga tobe boʻladi, masalan aholi va uning madaniyati tarixiga doir birikmalardir. Nutqda omonimlik xususiyatiga ega erkin birikmalar boʻlishi mumkin, lekin ular maʼno jihatdan turlicha hisoblanadi. Erkin birikmaning shakl va tuzilishi qatʼiy va oʻzgarmas boʻlishi mumkin. Uning barqarorligi qofiyadoshlik, sinonimlik, tuzilishdagi oʻxshashliklar va boshqalarga asoslanadi. U boshqa bir joyda ishlatilmaydigan arxaik elementlarni qamrab olishi mumkin, lekin har holda birikmani tashkil etuvchi soʻzlar koʻpincha oddiy boʻladi va yorqin obrazlilikni yaratadi. Ularning nutqdagi vazifasi ifodalilik va ularning bir soʻzli sinonimlariga taqqoslangan holda maʼno kuchaytirishdan iborat.

Iboralar tilda tayyor holda mavjud boʻlgan birliklardir. Ular ikki yoki undan ortiq komponentlarga ega. Natijada iboralar oʻz maʼnolari, tarkibi va strukturasi koʻra bir butun turgʻun shakl sifatida qabul qilinadi. Bundan koʻrish mumkinki,

1. Iboralar nutq jarayonida yaratilmaydi, balki ular tilda tayyor holda boʻladi;
2. Tarkibiy qismlarining bir butunligi, strukturasi va semantikasining doimiyligi iboralarga xos boʻlgan xususiyat sanaladi;
3. Iboralarning tarkibiy qismlari ikki yoki undan ortiq asosiy urgʻuga ega boʻlishi mumkin;
4. Iboralar soʻzlovchi tomonidan soʻz sifatida anglanishi mumkin boʻlgan alohida boʻlaklardan tashkil topgan turgʻun birikmalardir.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, soʻz bu oʻz tovush qobigʻiga, maʼnoga ega boʻlgan til birligidir. U tilshunoslikning turli sohalarida turli aspektlarda tadqiq etiladi. Iboralar maʼno va strukturasi koʻra turgʻun va erkin birikma turlariga boʻlinib, xususiyat va vazifalariga koʻra farqlanar ekan.

<sup>6</sup> Abidov M. Ingliz tilida turgʻun iboralarning oʻziga xos xususiyatlari. BMI. SamDCHTU. 2014



## References:

1. Abidov M. Ingliz tilida turg'un iboralarning o'ziga xos xususiyatlari. BMI. SamDCHTU. 2014
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: O'qituvchi,1992
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
4. Madaliyev. A. – O'zbek tilining izohli lug'ati|| Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, (2006) II jild.
5. Головин Б.Н. Введение в языкознание. -М.: Высшая школа,1977
6. Новиков Л.А. Сема//Лингвистический энциклопедический словарь. –М., 1990, с. 438.